



## O'RTA ASRLAR ISLOM SIVILIZATSIYASI DAVRIDA ILM FAN RAVNAQI

**Husen Xayrulloevich jo'rayev**

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori husaynbuxoriy@mail.ru

**Sevinchoy O'ktam qizi Achilova**

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti, Islom tarixi va manbashunosligi, yo'nalishi 5.1 - ITM 21 guruhi talabasi

sevinchoyachilova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15421576>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 15-May 2025 yil

### KEYWORDS

*Sivilizatsiya; Al-hazora; al-islamiya; Arastu asri yunon falsafasi; islom falsafasi; Ilm islomdir; Falakkiyot.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'rta asr tarixi davrida islom sivilizatsiyasining o'rnini hamda bu sivilizatsiya ilm -fan rivojiga qanchalik darajada hissa qo'shganligi haqida ilmiy tadqiqot olib boriladi.*

Islom sivilizatsiyasi islomni qabul qilgan xalqlar madaniyatining natijasidir. Islom sivilizatsiyasining arabcha nomlanishi "al-hazora al-islamiya" bo'lib, bu yerdagi al-hazora so'zi ko'chmanchi, badaviy tarzida yashamaydigan, balki o'troqlashgan holda madaniy hayot kechiradigan ma'nolarini anglatadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ushbu so'zga dastlabki ta'rif bergan olimlar uni hayot uchun zarur narsalardan ortiqcha bo'ladigan har qanday narsalarni al-hazora deb hisoblaganlar. Unga birinchilardan ta'rif bergan olimlar qatorida XIV asrda yashagan buyuk musulmon faylasufi va tarixchisi Ibn Xaldun shunday degan: "sivilizatsiya bu -farovonlik sirlarini yaxshi bilish, taom, kiyim, yotoq, bino va yashash uchun barcha vositalarni qo'llay olishdir". Ibn Xaldun sivilizatsiyani yashash uchun zarur narsalarga ziyoda bo'ladigan odatiy holatlar deya baholab, bu ziyodalik farovonlik va sivilizatsiyaga intilayotgan xalqlarda turlicha, ya'ni kimdir ko'proq va yana kimdir kamroq erishishi mumkin deb bilgan. Shu ma'noda Ibn Xaldun G'arb mutafakkirlaridan, jumladan britaniyalik tarixchi Arnold Toyinbiydan oldin sivilizatsiyaga ta'rif bergan deyishga yetarlicha asoslar mavjud.

### Asosiy qism

Birgina Yevropa ilm fanida fanlarning otasi deb tanilgan falsafa fanining rivojini o'rganaylik. Alambe Jourdaning 1819-yilda nashr etilgan "Arastu asri yunon hujjatlarining arab tiliga qilingan tarjimalari tanqidi" kitobi yunon madaniyati va ilmiy merosining arab mintaqasiga kirib kelishi va ko'rsatgan ta'sirini yorituvchi dastlabki manbalardan biridir. Bu manbada islom falsafasiga xristian sivilizatsiyasi, yunon falsafiy ta'limotlari va lotin tilidagi ilmiy yutuqlarning ta'siri ochib berilgan. 1852-yili Ernest Renanning "Ibn Rushd va uning falsafasi" nomli kitobi nashr etilgan va unda bu mutafakkirning qarashlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar va yunon falsafasining ta'siri yoritib berilgan. Solomon Munkning "Yahudiy va arab falsafasi majmui" nomli asarida

yahudiylar va arablarning ilmiy-intellektual faoliyatidagi o'ziga xosliklar, o'xshash jihatlar va vorisiylik asoslari tahlil qilingan. Islom falsafasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan G'arb madaniyati an'analari va diniy ta'limotlarining asoslari o'rganilgan va bu asar hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan<sup>1</sup>. Abbosiylar davrida islom ilm-fani va madaniyati rivojiga ta'sir ko'rsatgan eng asosiy omillardan biri erkin ijtimoiy muhit va rag'batlantiruvchi sharoit yaratilishi bo'lgan. Bu davrda ilm va ilm ahliga nisbatan izzat-hurmat shunchalik yuqori darajada ediki, bunday holatni na biror davr, na biror mamlakatda, hatto ko'klarga ko'tarib maqtalgan Yevropada ham uchratmaymiz. Faylasuf olim M.Qodirovning fikricha: "Eng qadimgi arab tilidagi manba bo'lgan Ibn Nadimning "Al-fehrist" ("Ro'yxat") kitobidagi ma'lumotlarga ko'ra, birinchi marta kimyo, astronomiya va tabobatga doir asarlarni arab tiliga tarjima qilish tashabbusi Ummaviy amir Xolid ibn Yazidga taalluqli ekan. Ilgari zardushtiylik dinida bo'lib, keyin islomga kirgan Abdullo ibn Muqaffaning hind olimi Bidpoy Hakimning "Kalila va Dimna" asarini paxlaviy tilidan arabchaga tarjima qilgani katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qadimgi fors tilidan arab tiliga qilgantarjimalaridan "Xudoyнома" ("Qadimgi fors davlatchiligi tarixi"), "Oyinnoma" ("Yo'l-yo'riqlar, urf-odatlar"), "Mazda kitobi", "Anushervonning hayot yo'li" va boshqa adabiy-axloqiy risolalari islom mintaqasi madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan". Shunday ekan, islom falsafasi o'z davrida turli madaniyatlar kesishuvi, uchrashuvi, hamkorligi va o'zaro sintezlashuvining hosilasi sifatida yuzaga keldi va o'zida boshqa madaniyatlarning eng go'zal an'analarni takomillashtirganini namoyon qildi<sup>2</sup> Islom sivilizatsiyasi o'rta asrlarda o'zining yetuk darajasiga etdi. G'arb dunyosining ayrim vakillari bu paytni "zulmat" davri, deya hisoblab turgan bir vaqtda ajdodlarimiz nurli davrni boshidan o'tkazganlar. Vaholanki, amerikalik olim Jorj Sarton o'zining "Introduction to the History of Science" ("Fan tarixiga kirish") nomli kitobida ilmiy bosqichlarni yarim asrlardan iborat 50 yillik bir necha davrlarga bo'lib chiqqan. Xususan, 750-yildan 1100-yilgacha -350 yil mobaynida yashagan olimlarning nomlarinisanab o'tgan. Diqqat bilan kuzatgan o'quvchi ushbu olimlar musulmon olam vakillari ekaniga amin bo'ladi. Bunday olimlar qatorida kimyo, matematika, tibbiyot, geografiya, falakiyot, tabiiy ilmlarda ulkan faoliyat olib borgan Jobir ibn Hayyon, Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Mas'udiy, Abul Vafo, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom singari arab, turk, afg'on, fors musulmon olimlari keltiriladi. Sharqshunos olim Frants Rouzentel Islom va ilm munosabatlariga bag'ishlangan «Ilm tantanasi» nomli yirik asarida Islom dini mag'iz-mag'zigacha ilm olishga da'vatdan iborat, deb ta'kidlaydi. 1Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. -T.: HILOL-NASHR nashriyoti. 2019<sup>22</sup>M.Qodirov. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O'rta asrlar). O'quv qo'llanma. -T.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.

Kitobning kattagina bir qismiga esa, «Ilm -islomdir» degan nom berilgan. Fransuz faylasufi Jan Kondorse «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasiga chizgilar» nomli asarida: «O'rta asrlar musulmon olamida to'plangan ilmiy bilimlar g'arbda Uyg'onish davrini tayyorlash uchun xizmat qilmaganida insoniyat uchun besamar yo'qolib ketardi», deb yozgan. Falakkiyot ilmi ajnabiy tilda astronomiya deyiladi. Dunyo xalqlarining ko'pchiligi osmon jismlariga "Xudo yoki unga tegishli askarlar" degan nazar bilan qarab turgan bir paytda musulmonlar Qur'oni Karim oyatlaridan ruhlanib, falakiyot ilmiga asos soldilar. Boshqa barcha ilmlar qatori, falakiyot ilmidagi kashfiyotlarga ham musulmonlarni islom ta'limotlari chorlagan. Bir guruh falakiyot ilmi mutaxassislari o'z kasblariga oid bir kitobni muzokara

qilib o'tirganlarida diniy ulamolardan ba'zilari o'tib qolib: "Nima qilyapsizlar?" deb so'rabdilar. Shunda falakiyotchilar: "Alloh taoloning "Tuyaning qanday xalq qilinganiga, osmonning qanday ko'tarilganiga nazar solmaydilar mi?" degan oyatining sharhini o'rganmoqdamiz", deb javob bergan ekanlar. Falak ilmi haqidagi kitoblarning avvalida bu ilm osmondagi narsalarni o'rganish orqali Allohning Biru Borligi, qudrati cheksizligining aqliy isbotiga olib boruvchi ilm ekanligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham musulmonlar bu ilmga katta e'tibor berganlar. Uni o'rganishga talab kuchli bo'lganligidan musulmon olamining Samarqand, Bag'dod, Damashq, Qohira, Fas, Tulaytila (Toledo), Qurtuba va boshqa ko'pgina shaharlarida mazkur ilmga xos o'quv yurtlari ishlab turgan. Shu bilan birga, ko'plab rasadxonalar barpo etilgan va ularda muvaffaqiyat ila ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur rasadxonalardan ba'zilarini eslab o'tishimiz ham mumkin. Xalifa Ma'munning Bag'dodda bitta, Damashqda bitta rasadxonasi bo'lgan. Ikki xalifa Aziz Biamrillah va Hokim Biamrillahlar Qohirada bittadan ikkita rasadxona qurganlar. Buyuk vatandoshimiz Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi, Xulaguxonning Murg'onadagi rasadxonasi va boshqalar shular jumlasidandir. O'sha paytlarda musulmonlar ichidan butun dunyoga dong taratgan buyuk falakiyot olimlari yetishib chiqdi. Ana o'sha ulug' musulmon olimlar ichida bizning vatandoshlarimiz ham borligi, ularning yetakchi o'rinlarni egallaganliklari biz uchun faxrdir

#### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom sivilizatsiyasi asrlar o'sha o'zining yangilanib turuvchi, o'zgarishlar bilan hamohang bo'ladigan, rivojlanishlarga moslashadigan, insoniyat sivilizatsiyalariga zid bo'lmaydiganligini isbotlab berdi. Bugun islom olami insoniyat tamaddunini rivojlantirishga yaqin turibdi va qo'ldan boy berilgan barcha sohani egallashga harakat qilmoqda. Chunki bashariyatga ma'rifatning turli sohalarini taqdim qilgan va taraqqiyotni etgan islom sivilizatsiyasi yana rivojlantirish salohiyatiga ega. Aniqki, islom sivilizatsiyasi ertaning Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Islom tarixi 2-kitob -T.: HILOL-NASHR nashriyoti. 2017 sivilizatsiyasi. Islom dunyosi bugungi holida qolib ketmaydilar, bu uzoq davom etmaydi ham. Chunki bu holat tabiiy jarayonva insoniyatning hayot yo'liga to'g'ri kelmaydi. Musulmonlar o'z sivilizatsiyalarini yangidan barpo qilishlari uchun o'zaro jiplashishlari va bir-birlariga yordam berishlari lozim. Shundagina ularning sivilizatsiyalari barcha insoniyatga yana namuna bo'la oladi. Aslida ham islom sivilizatsiyasining rivojlanishi musulmonlarning buguni va kelajagi uchun ulkan mas'uliyatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. -T.: HILOL-NASHR nashriyoti. 2019
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. -T.: HILOL-NASHR nashriyoti. 2019
3. Ahmad Muhammad. "Islom hazorasi", Toshkent "Movarounnahr", 2004.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Islom tarixi" 2-kitob. Toshkent: Hilol Nashr, 2017.
5. B. Abduhalimov. Baytul hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. -T.: O'zbekiston, 2010

6. M.Qodirov. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O'rta asrlar). O'quv qo'llanma. -T.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)8. [www.islom.u](http://www.islom.u)



INNOVATIVE  
ACADEMY